

## G'AFUR G'ULOMNING BIZGA QOLDIRGAN OLTINLARI

Maxmudov Mehrozbek Bahodir o'g'li

Toshkent davlat yuridik Universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti

1-kurs B potok 3-guruh talabasi

[Mehrozbekmaxmudov3355@gmail.com](mailto:Mehrozbekmaxmudov3355@gmail.com)

**Annotatsiya:** G'afur G'ulomning ilmiy ishlariiga ya'ni asarlari, she'rlari, qissa-yu dostonlariga odamlarning e'tibor, adibning yoshligi va uning she'riy to'plamlar, ocherklar, tarjimalar va hayoti davomida ko'rgan qiyinchiliklari.

**Kalit so'zlar:** Adib, inson, hayot, matonat, maktab, tarjima, doston, shoir, xalq, unvon, ocherk, gazeta, yoshlik.

Biz, bu insonni shoir, tarjimon, qissanavis deb bilamiz, lekin shaxsan men bu insonni bardoshli, sabrli va kuchli shaxs deb baralla aytaman. Shuning uchun ham bu matonatli G'ofur G'ulomning hayotidan anchagina bilim va hayot saboqlarini olishimiz mumkin, bir gap bilan aytganda uning qiyin o'tgan yoshligidan tortib vafot etguniga qadar emas, balki hanuzgacha qalbimiz tubidan chuqur iz qoldirganini ko'rishimiz mumkin. Yetim qolgan bo'la turib ham butun oila tashvishi uning bo'ynida qolganida o'zini yo'qotib qo'yaganligi, bu insonni qanchalik matonatli ekanligidan darak beradi. Biz bu adib hayotidan va har bir qiyinchilikdan o'tish mumkinligi va bu o'tgan yoshlikdan so'ng ham buyuk adib bo'la olishni imkonim borligini isbotlab bergani barcha uchun yaqqol o'rnak bo'la oladi. Adibning hayoti haqida keyingi o'rnlarda ko'rishimiz mumkin.

O'zbek adabiyotining mashhur namoyondasi G'afur G'ulom 1903-yil 10-may sanasida kambag'al oilada tug'ilgan. Yoshlik chog'i Toshkent shahrining Qo'rg'ontegi mahallasida o'tgan va ko'p qiyinchiliklarni boshdan o'tkazgan. Otasi G'ulom Mirza Orif rus tilini bilar, she'r o'qib turar va hatto o'zi ham she'r yozardi. Biroq bo'lajak yosh adib to'qqiz yoshida otasidan, o'n besh yoshida onasidan yetim qoladi. G'afur G'ulom avval eski maktab deb atalmish yarim musulmon maktabida o'qigan, so'ngra rus tuzem maktabida ta'lim olishni davom ettirgan. O'qishni bitirgach zamonaviy maktabda dars berishni boshladidi. 1923-yildan bolalar uyida o'quv bo'lim boshlig' etib tayinlandi. Bu davrda G'ofur G'ulom «Kambag'al dehqon», «Qizil O'zbekiston», «Sharq haqiqati» gazetalari muharririyatlarida ham ishladi. Gazeta uning uchun dorilfunun rolini o'tadi, xalq hayotini o'rganish, unga faol aralashish yo'lida muhim vosita bo'ldi. Uning mamlakatni himoya qilish haqidagi tantanavor she'rlari, o'tmisht sarqitlarini qoralovchi hajviyalari va xalqning kundalik ijodiy mehnatini olqishlovchi asarlaridan jamlangan «Dinamo» va «Tirik qo'shiqlar» nomli dastlabki she'riy to'plamlari 1931—1932 yillarda chop etildi. Shoir 1930—1935 yillarda «Ko'kan» dostonini, «To'y», «Ikki vasiqa» balladalarini yaratdi. Adib barhayot davridayoq shaxsga sig'inish ta'sirida yaratilgan ayrim asarlarini qayta ko'rib chiqqan va asarlarini oldingidan ham

mukammallashtirgan. Ayrim misralarni yangidan yozib, she'rga tabiiylik va hayotiylik bag'ishladi. Xuddi shu hol uning «Kuzatish», «Sen yetim emassan» she'rlariga ham xosdir, ular ham adib tomonidan qayta ishlangan. 30-yillarda G'afur G'ulom hikoya, ocherk, feletonlar qatori «Netay», «Yodgor», «Tirilgan murda» kabi qissalarini ham yaratdi. Urush yillarida shoir o'z ijodining butun haroratini fashist bosqinchilariga qarshi kurashayotgan xalqqa qaratdi, uning muqarrar g'alabasiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan she'rlar yaratdi. Shoirning 1941 – 1945-yillardan keyingi ijodi yanada rivojlandi va chuqurlashdi. G'ofur G'ulom urushdan keyingi davrlardagi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida o'zbek ayolining o'rnnini madh etdi.

Yodgor asari haqida gapiradigan bo'lsak, Otasiz qolgan Jo'raning hayoti hikoya qilinadi. Qissa l-shaxs tomonidan hikoya qilinadi. Jo'ra begonaning farzandini tarbiyalaydi, xizmatga ketish va shunga o'xshash voqealar tasvirlangan va bu orqali oddiy insonning begona bolaga bo'lgan munosabati tufayli Jo'raning axloqiy darajasini aks ettirgan. Shuningdek, asarda ko'proq ilmga e'tibor qaratilgan. Jo'raning o'qishi, Saodatning texnikumga kirishi, Mehri va uning erini ham o'qib chiqishi.

“Kelajakda baxtli bo'lmoqni istagan har bir qiz o'qimog'i kerak”.

O'qimagan inson esa noto'g'ri qadam tashlashi haqida ham aytiladi: Mehrining bosgan qadamlari, Jo'raning ham birrovga shakarguftorlik qilmoqchi bo'lishi.

Yana qaysidir tomondan qaralsa paranjiga qarshilik, aktivist bo'lishga undov. Xullas, qissa kichkina bo'lishiga qaramasadan unda chuqur ma'no yotibdi va aynan meni bu asarda o'ziga tortgan narsa bu, ilmga bo'lgan e'tibor bo'ldi.

Mo'yqalam sohibi «Sen yetim emassan», «Kuzatish», «Vaqt», «Sog'inish» kabi she'rlar, publitsistik ocherk va maqolalar yozib, xalqni jang va mehnat g'alabasiga otlantirdi. G'afur G'ulom urushdan keyingi yillarda ham adabiyot janrlarining ko'pgina turlarida samarali qalam tebratib, yuksak badiiy asarlar yaratdi, publitsistika va adabiyotshunoslikka oid qator ajoyib maqolalarini e'lon qildi. Uning ijodi xalq hayotining shu davrdagi o'ziga xos yilnomasi o'laroq namoyon bo'ldi. Agar G'ofur G'ulom bu davrda she'riy asarlari bilan faylasuf shoir darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, «Shum bola» qissasi, «Mening o'g'rigina bolam» singari hikoyalari bilan xalq turmushi va ruhini yaxshi biluvchi mohir nosir ekanligini namoyish etdi.

G'afur G'ulom o'zbek tarjima maktabining maydonga kelishiga ham ulkan hissa qo'shgan. U «Otello», «Qirol Lir» singari jahon va rus adabiyoti durdonalarini o'zbek tiliga katta mahorat bilan o'girgan. G'afur G'ulom O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi edi. Unga 60 yillik yubileyi munosabati bilan O'zbekiston xalq shoiri faxriy unvoni berilgan (1963). Shoirning ko'pgina asarlari Osiyo va Yevropa xalqlari tillariga tarjima qilingan. O'zbek she'riyatining otashin jarchisi, ulkan so'z san'atkori G'afur G'ulom 1966-yili 10-iyulda Toshkentda vafot etgan. Vafotidan so'ng «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan (2000).

Xulosa qilib shuni aytishim mumkin-ki, adib bizga yuqori saviyali, oltinga teng me'ros qoldirdi. Hozirgi kunda bunday turdag'i asarlar topish mushkul vazifa va adib shuncha voqealarni boshidan o'tkazgan bo'lsa-da, o'zida kuch topib ijodkorlik xarakterini ko'rsatib

qo'yan. Bu insonni asarlarini o'qir ekanman mening hayolimda bir gap yangradi "Inson qancha harakat qilsa, uning yo'liga yov yoki to'siq g'ov bo'lmas ekan, faqat xohish va istak bo'lsa bas". Shu sababli shoirning hayoti, insoniy fazilatlar vaadolat tarafdroriligi uning she'rlarida, asarlarida namoyon bo'lgan va qora kunlarini harakati evaziga nur sochdirgan adib G'ofur G'ulom tarix sahnasiga kirgan va o'zining oltinga teng ijodlarini bizga me'ros qilib qoldirgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Wikipedia.com;
2. Yodgor asari.